

“KELAJAK SOATI” O‘QUV DASTURI

KIRISH

“Kelajak soati” mashg‘ulotlari umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik mas‘uliyati, ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, huquqiy va raqamli madaniyat, mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan tizimli tarbiyaviy mashg‘ulotlar majmuasidir. Konsepsiyada “Kelajak soati”ning asosiy maqsadi yuksak ma‘naviyat, mustaqil tafakkur, milliy o‘zlik, Vatanga daxldorlik va ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish bilan belgilangan.

Maqsadi

O‘quvchilarda Vatanga muhabbat va daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas‘uliyati, ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, huquqiy va raqamli madaniyat, mustaqil fikrlash hamda kelajakka mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Vazifalari

1. O‘quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va fuqarolik daxldorligini shakllantirish;
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmatni kuchaytirish;
3. Ilm-ma‘rifat, kitobxonlik, mehnat va kasbga qiziqishni rivojlantirish;
4. Huquqiy madaniyat va xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish;
5. O‘quvchilarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish;
6. Raqamli muhitda xavfsiz va mas‘uliyatli harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
7. O‘quvchilarning muloqot, hamkorlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faolligini oshirish.

Kutilayotgan natijalar

1. Mustaqil va tanqidiy fikrlash - axborot va dalillarni tahlil qiladi, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslaydi, mustaqil xulosa chiqaradi va asoslangan qaror qabul qiladi.
2. Samarali muloqot - o‘z fikrini aniq, mantiqiy va madaniyatli ifodalaydi, savol beradi, faol tinglaydi va boshqalarning fikrini hurmat qiladi.
3. Hamkorlik - jamoada ishlaydi, umumiy maqsadni belgilaydi, vazifalarni taqsimlaydi va jamoaviy natija uchun shaxsiy mas‘uliyatni his qiladi.
4. Ijodkorlik va innovatsion fikrlash - yangi g‘oyalar ilgari suradi, mavjud muammolarga turlicha yondashadi va amaliy yechimlar ishlab chiqadi.

5. Muammoni hal qilish va qaror qabul qilish - hayotiy va ijtimoiy vaziyatlarni baholaydi, muqobil yechimlarni tahlil qiladi va mas'uliyatli qaror qabul qiladi.
6. Axborot va raqamli savodxonlik - axborotni izlaydi, saralaydi, ishonchligini baholaydi va raqamli texnologiyalardan xavfsiz hamda mas'uliyatli foydalanadi.
7. Fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik - Vatan, xalq, milliy qadriyatlar va madaniy merosga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, jamiyat hayotida faol va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi.
8. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar-o'z his-tuyg'ularini boshqaradi, boshqalarning holatini tushunadi, bag'rikenglik, mehr-oqibat, adolat va insonparvarlik tamoyillariga amal qiladi.
9. O'zini anglash va uzluksiz rivojlanish - o'z qobiliyati va qiziqishlarini anglaydi, maqsad qo'yadi, o'z faoliyatini tahlil qiladi va shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilaydi.
10. Mas'uliyatli amal va tashabbuskorlik - olgan bilim va shakllangan qadriyatlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llaydi, tashabbus ko'rsatadi, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etadi va o'z qarorlari hamda xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his qiladi.

Mashg'ulotlarni tashkil etish modeli

“Kelajak soati”ning har bir 4 soatlik mavzusi o'quvchining bilimni egallashi, unga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirishi, o'zlashtirilgan bilim va qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo'llashi hamda faoliyatini tahlil qilishi tamoyili asosida bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Har bir 4 soatlik mavzu **“Bilish - Munosabat - Amal - Refleksiya”** modeli asosida amalga oshiriladi.

1-soat - Bilish. Savol, hikoya, rasm, video, kuzatish va boshqa manbalar orqali mavzuni anglash, asosiy tushuncha va g'oyalarni aniqlash, savollar berish hamda dastlabki xulosalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

2-soat - Munosabat. Oila a'zolari, do'stlar, tengdoshlar va yaqinlar bilan suhbatlashish, fikr almashish, o'z fikri va hayotiy tajribasini boshqalarning qarashlari bilan taqqoslash, turli nuqtayi nazarlarni tinglash va ularga munosabat bildirishga qaratiladi.

3-soat - Amal. Muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish, ijodiy topshiriq bajarish, kichik loyiha, amaliy ish yoki volontyorlik faoliyatida ishtirok etish orqali olingan bilim va shakllangan qadriyatlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltiriladi.

4-soat - Refleksiya. Bajarilgan ish natijasini taqdim etish, o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash, nimani o'rganganini aniqlash hamda “Mening keyingi

qadamim” mazmunida shaxsiy xulosa va kelgusidagi harakatlarini ifodalashga yo‘naltiriladi.

Mazkur model o‘quvchini mavzuni faqat tinglovchi sifatida emas, balki bilimni egallovchi, fikrlovchi, munosabat bildiruvchi, amalda qo‘llovchi va o‘z faoliyatini baholovchi faol subyekt sifatida ishtirok etishiga imkon beradi.

Ajratilgan soat va mashg‘ulot vaqti

“Kelajak soati” mashg‘ulotlari Konsepsiyaga muvofiq haftasiga 1 akademik soat - 45 daqiqa

davomida tashkil etiladi.

1-4, 5-8 va 9-11-sinflar uchun o‘quv dasturida belgilangan umumiy soat hajmi 34 soatni tashkil etadi. Mashg‘ulotlar o‘quv yili davomida tasdiqlangan taqvim-mavzu reja asosida tashkil etiladi.

Dasturga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish

“Kelajak soati” o‘quv dasturining yagona maqsadi, ustuvor vazifalari, tayanch mazmuni va kutilayotgan natijalarini saqlagan holda, ta’lim muassasasining pedagogik sharoiti, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, hududiy ehtiyojlari hamda dolzarb tarbiyaviy masalalardan kelib chiqib, pedagogik kengash qarori asosida dastur mazmuniga 15 % gacha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkin. Bu o‘zgartirish moslashtirish doirasida mahalliy materiallar, hayotiy misollar, keyslar, ijodiy topshiriqlar, qo‘shimcha amaliy faoliyatlar va dolzarb tarbiyaviy mavzular kiritilishi mumkin. Bunda dasturning asosiy maqsadi, ustuvor vazifalari, tayanch mazmuni va kutilayotgan natijalari o‘zgarmasligi shart.

Konsepsiyada ham “Kelajak soati” mazmunini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va hayotiy ehtiyojlariga moslashtirish, interaktiv hamda amaliy metodlardan foydalanish zarurligi belgilangan.

Dasturning yakuniy pedagogik natijasi - o‘z Vatani va jamiyatiga daxldorligini anglaydigan, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ko‘nikmalarga ega, mas’uliyatli qaror qabul qila oladigan va o‘z bilim hamda salohiyatini jamiyat taraqqiyoti yo‘lida qo‘llaydigan faol shaxsni shakllantirishdan iborat.

**1-4-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING YILLIK O‘QUV
REJASI**

№	O‘quv mavzulari nomlanishi	Vaqt	Soat
1	“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”	Sentabr	4
2	Ustozga ehtirom- millatga ehtirom!	Oktabr	4
3	Davlat ramzlari-mustaqilligimiz g‘ururi!	Noyabr	4
4	Bolalar huquqlari va maktab qoidalari	Dekabr	4
5	Vatan himoyachilari- mardlik va jasorat namunasi	Yanvar	3
6	Ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik!	Fevral	4
7	Milliyligim- faxrim, merosim- baxtim!	Mart	3
8	Buyuk bobolarimiz- dunyoga tanilgan ajdodlarimiz!	Aprel	4
9	Xotira- mangu, qadr- muqaddas !	May	4
	Jami:		34

1-4-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING OYLAR KESIMIDA TAQVIM MAVZULAR REJASI

Oy / hafta soni	Asosiy (yoʻnalish)	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
Sentabr (4 soat)	Vatan, millat va davlatchilik	“Yagona vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” mavzusida video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish.	Oilada: “Vatan qayerdan boshlanadi?” haqida suhbat qilinib, olingan xulosalar maktabda tahlil qilinadi	Kichik loyiha. “Vatanimning goʻzal joylari” mavzusida rasm chizish (asfaltda, devorda) plakat, kollaj, ogʻzaki taqdimot tayyorlash	Kichik sheʼr yoki jumla yodlash: “Men Oʻzbekistonlikman”
Oktabr (4 soat)	Ilm, maʼrifat va kasbiy yoʻnalish	“Ustozga ehtirom-millatga ehtirom!” mavzusida video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish.	Oilada: “Oilamning hikmatlar sandigʻi” - oila aʼzolaridan foydali maslahat, kasb siri yoki hayotiy saboqlar haqida oʻrganish va fikr almashilinib, tushunchalar maktabda tahlil qilinadi	Kichik loyiha. “Ustozimga savolim bor” — 3 ta savol tuzib intervyu olish yoki “35 kitob — 35 tavsiya” sinf kitoblar javonini yaratish	Ustozimga ehtirom sheʼr yodlash/ tabrik kartochkasi tayyorlash

Oy / hafta soni	Asosiy (yoʻnalish)	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
Noyabr (4 soat)	Mustaqillik timsollari	“Davlat ramzlari-mustaqilligimiz gʻururi!” mavzusiga doir video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish	Oilada: Bayroq Vatanimizni tanitadi mavzusida suhbatlashadi, bayroqning mazmuni va ahamiyati haqida fikr almashadi va tushunchalar maktabda tahlil qilinadi.	Kichik loyiha. “Ramzlarimizni bilaman” — bayroq, gerb va madhiyani aks ettiruvchi kollaj yoki plakat tayyorlash.	“Men ramzlar himoyachisiman” - davlat ramzlariga hurmatni ifodalovchi 3 ta qoida ishlab chiqish, ularni hayotiy misollar bilan bogʻlashi va sinf uchun “Ramzlarni hurmat qilamiz!” qoidalar kartasini tayyorlash.
Dekabr (4 soat)	Huquqiy madaniyat va xavfsizlik	“Bolalar huquqlari va maktab qoidalari” mavzusida video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish.	Oilada: Sogʻlom va xavfsiz yashash, gadjet va internetdan maqsadli va meʼyorda foydalanish haqida suhbatlashadi va tushunchalar maktabda tahlil qilinadi.	Kichik loyiha. “Bizning sinf qoidalarimiz” nomli ijodiy qoidalar toʻplamini tuzish.	“Burchlar daraxti” yaratish: rangli qogʻozdan daraxt yasash va uning barglariga asosiy burchlarini yozish.
Yanvar (3 soat)	Vatan himoyasi va mardlik	“Vatan himoyachilari, mardlik va jasorat namunasi!” video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish.	Oilada: Oila tarixidagi mardlik namunalari haqida suhbatlashadi va tushunchalar maktabda tahlil qilinadi.	Kichik loyiha. “Jasorat qahramonlari” yoki “Oila qahramonlari” galereyasini yaratish	“Jasorat medali” yoki Vatan himoyachilari kuni uchun logotip modelini yasash yoki chizish

Oy / hafta soni	Asosiy (yoʻnalish)	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
Fevral (4 soat)	Ajdodlar merosida axloq va odob tarbiyasi	“Ajdodlarga munosib avlod boʻlaylik!” mavzusida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga oid video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish.	Oilada: “Oilaviy kitobxonlik” - Navoiy yoki Bobur ijodidan bolalar yoshiga mos asar yoki sheʼrni birgalikda oʻqish va tahlil qilinadi va tushunchalar maktabda muhokama qilinadi.	Kichik loyiha. “Donolar bisotidan” : sahna koʻrinish yoki audio kitob tayyorlash	“Navoiy va Boburga maktub” yozish.
Mart (3 soat)	Milliy oʻzlik va madaniy meros	“Milliylikim -faxrim; merosim-baxtim” mavzusiga oid video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish.	Oilada: oilaviy Navroʻz anʼanalari va maʼnaviy merosi haqida suhbatlashiladi va tushunchalar maktabda tahlil qilinadi.	Kichik loyiha. Milliy harakatli oʻyinlarni oʻynash	“Qadriyatlarni asraylik” kichik hikoya yoki rasm chizish
Aprel (4 soat)	Buyuk ajdodlar - milliy faxrimiz!	“Buyuk bobolarimiz-dunyoga tanilgan ajdodlarimiz!” mavzusida, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish.	Oilada: “Men bobomizdan nimani oʻrganaman?” mavzusida farzandning fikrlarini tinglanadi va tushunchalar maktabda tahlil qilinadi.	Kichik loyiha. “Sohibqironning fazilatlari” mavzusida “fazilatlar daraxti” yasash.	“Sohibqironning yaxshi fazilatlari” mavzusida gul shaklidagi kollaj tayyorlash

Oy / hafta soni	Asosiy (yoʻnalish)	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
May (4 soat)	Xotira va qadrlash insoniylik mezon	“Xotira-mangu; qadr-muqaddas!” mavzusida, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida mashgʻulotni tashkil etish.	Oilada: Xotirani asrash nima degani? Tarixni bilish, kattalarga hurmat, yaxshi ishlar bilan xotira qoldirish haqida mulohaza qilinadi va tushunchalar maktabda tahlil qilinadi.	“Yaxshilik zanjiri”: faxriylarni holidan xabar olish sinf rahbari hamrohligida	Yil yakuni: “Keksalarga eʼtibor” - “Mehrli qoʻllar” plakatini yaratish va yil davomida oʻrganganlarini umumlashtirish.

1-4-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING O‘QUV DASTURI MAZMUNI

1-mavzu. “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Mustaqillik - yurtimizning erkin va ozod hayot kechirishi, o‘z kelajagini o‘zi belgilashi ekanligi haqida sodda tushuncha berish. Vatan - inson tug‘ilib o‘sgan, uni asrab-avaylash va sevish zarur bo‘lgan aziz maskan ekanini anglatish. O‘zbekiston - barcha bolalar uchun yagona va muqaddas Vatan. Mustaqillik bayrami, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasi bilan tanishtirish, davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni shakllantirish. Oilada, maktabda va mahallada kattalarni hurmat qilish, tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lish, mehribonlik va hamjihatlik ko‘rsatish, turli millat va elat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish. Vatan ravnaqi uchun yaxshi o‘qish, odobli bo‘lish, maktab va jamoat joylarini ozoda saqlash, tabiatni asrash hamda kichik foydali ishlarni bajarish har bir bolaning munosib hissasi ekanini tushuntirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Vatanimga tilak”** - Vataningizga 3-4 ta ezgu tilak yozing yoki ayting.
2. **“Davlat ramzlari”** - Bayroq, gerb va madhiyaga bag‘ishlangan kichik kollaj tayyorlang.
3. **“Yaxshilik daraxti”** - Daraxt rasmini chizing. Uning har bir bargiga siz amalga oshirishingiz mumkin bo‘lgan yaxshi ishlarni yozing.
4. **“Birgalikda - ahil sinf”** - Do‘stlik, hamjihatlik va o‘zaro yordamni ifodalovchi rasm chizing yoki kichik sahna ko‘rinishi tayyorlang. Ijodingizda sinfdoshlarning birgalikda ishlashi, bir-birini qo‘llab-quvvatlashi va hurmat qilishi aks etsin.
5. **“Vatanparvar bola qanday bo‘ladi?”** - Vatanparvar bolaning 5 ta yaxshi fazilatini rasm yoki so‘zlar yordamida ifodalang.
6. **“Mening oilam - mening tayanchim”** - Oilangizda bir-biringizga ko‘rsatadigan mehr va yordamni rasm yoki kichik hikoya orqali ifodalang.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- O‘z fikrini asoslash, oddiy muammolarga yechim taklif qilish, yaxshi va foydali xatti-harakatlarni farqlash.
- Rasm, kollaj, sahna ko‘rinishi, shior va kichik loyihalar orqali yangi g‘oyalarni yaratish.
- O‘z fikrini aniq va odobli ifodalash, savollarga javob berish, boshqalarning fikrini tinglash.

- Guruhda vazifalarni taqsimlash, birgalikda qaror qabul qilish va umumiy natijaga erishish.
- Bilim olishga intilish, o'z xatti-harakatini baholash va foydali odatlarni shakllantirish.

2-mavzu. Ustozga ehtirom - millatga ehtirom! (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Ustozning bola hayotidagi o'rni, uning ta'lim berish, tarbiyalash va to'g'ri yo'l ko'rsatishdagi mehnati haqida yoshga mos tushuncha hosil qilish. Ustozga hurmat va minnatdorlikni salomlashish, xushmuomalalik, diqqat bilan tinglash, maktab qoidalariga rioya qilish va ustozning mehnatini qadrlash orqali namoyon etish. Ustozdan nafaqat fanlarni, balki odob, tartib, mehnatsevarlik, halollik, mehribonlik va mas'uliyat kabi yaxshi fazilatlarni o'rganish. Berilgan vazifalarni mustaqil bajarish, o'z xatosini anglash va uni tuzatishga intilish orqali o'quv mas'uliyatini rivojlantirish. Kitobni bilim, tarbiya va kashfiyotlar manbai sifatida qadrlash. Yoshiga mos badiiy asar, ertak, hikoya va ilmiy-ommabop kitoblarni tanlash, muntazam o'qish, o'qilgan mazmunni tushunish va o'z fikrini sodda tarzda ifodalashga o'rgatish. Kitobxonlik orqali yangi bilimlarni egallash, tasavvur va lug'at boyligini kengaytirish, savol berish, voqealar sababini tushunish, qahramonlarning xatti-harakatiga munosabat bildirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Kitobni asrash, undan to'g'ri foydalanish, o'qish uchun vaqt ajratish va bo'sh vaqtni foydali mashg'ulotlar bilan mazmunli tashkil etish odatlarini shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Bir kun ustoz o'rnida”** - agar siz bir kun ustoz bo'lsangiz, o'quvchilarga nimani o'rgatgan bo'lardingiz? Rasm yoki kichik hikoya orqali ifodalang.
2. **“Ustozimga savolim bor”**- Ustozingizga berishni istagan 3 ta qiziqarli savol tuzing va intervyu oling.
3. **“Sinfimizning hurmat qoidalari”**- ustoz va sinfdoshlarni hurmat qilish uchun 5 ta qoida ishlab chiqing. Eng muhim 3 tasini sinf kelishuvi asosida tanlang..
4. **“Kitob tavsiyasi”** - sinfdoshlaringizga o'qishni tavsiya qiladigan kitobingizni 1 daqiqada tanishtiring.
5. **“Qahramonni tanla”** - asardagi ikki qahramonni solishtiring: ularning yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlarini ayting.
6. **“35 kitob - 35 tavsiya”** - sinfdagi har bir o'quvchi bittadan kitob tanlab, uning nomi va nima uchun o'qishni tavsiya qilishini yozadi. Yakunda sinfnings **“Kitoblar javoni”** yaratiladi.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- O'qigan asari mazmunini tushunadi, voqealar va qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi, yaxshi va noto'g'ri xatti-harakatlarni farqlaydi, o'z munosabatini bildiradi.
- Ustozga tilak, hikoya, rasm, kompozitsiya va kitob tavsiyasini o'z tasavvuri asosida yaratadi; berilgan vaziyatlarga mustaqil va noodatiy yechimlar taklif qiladi.
- O'z fikri, taassuroti va xulosasini og'zaki yoki yozma ravishda sodda va tushunarli ifodalaydi; savol beradi, javob beradi va suhbatdoshini diqqat bilan tinglaydi.
- Juftlik va kichik guruhlarda topshiriqlarni bajaradi, o'zaro fikr almashadi, vazifalarni taqsimlaydi va umumiy natijaga erishishga intiladi.
- Kitob, ertak, hikoya va boshqa yoshiga mos manbalardan kerakli ma'lumotni topadi, uni tushunadi va o'z fikrini ifodalashda foydalanadi.
- Hikoya yoki hayotiy vaziyatdagi muammoni aniqlaydi, uning sababini tushunishga harakat qiladi va bir yoki bir nechta yechim taklif qiladi.

3-mavzu. Davlat ramzlari - mustaqilligimiz g'ururi! (3 soat)

Kelajak soati mazmuni. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi - mamlakatimizning mustaqilligi, xalqimizning tarixi, milliy qadriyatlari va ezgu intilishlarini ifodalovchi muhim davlat ramzlari ekanligi haqida yoshga mos tushuncha berish. Davlat bayrog'idagi ranglar, yarim oy va yulduzlarning mazmuni, Davlat gerbidagi Humo qushi, quyosh, tog'lar, daryolar, bug'doy boshloqlari, paxta shoxlari kabi timsollar bilan tanishtirish va ularning Vatanimiz haqidagi ramziy ma'nosini sodda misollar orqali tushuntirish. Davlat ramzlarini bilish va qadrlashni kundalik xulq-atvor bilan bog'lash: ramzlarni asrash, ularga nisbatan hurmat ko'rsatish, Vatan tinchligini qadrlash, jamoat joylarida o'dob saqlash va mamlakatimiz yutuqlaridan faxrlanish. O'quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, o'z yurtiga daxldorlik, tinchlikni qadrlash va fuqarolik mas'uliyati tuyg'ularini shakllantirish. O'zining yaxshi o'qishi, o'dobli bo'lishi, foydali ishlarni bajarishi va atrof-muhitni asrashi orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shish mumkinligini tushuntirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **"Gerbimizdagi sirlar"** - Davlat gerbidagi o'zingizga yoqqan 3 ta timsolni tanlang, ularni chizing va ma'nosini tushuntiring.
2. **"Madhiyamiz yangraganda"** - Davlat madhiyasi ijro etilganda o'quvchi qanday o'dob qoidalariga amal qilishi kerakligini rasm yoki qisqa hikoya orqali ifodalang.
3. **"Ramzlarimizni bilaman"** - Bayroq, gerb va madhiyani birgalikda aks ettiruvchi kollaj yoki plakat tayyorlang.

4. **“Agar bayrog‘im gapira olsa...”** - Davlat bayrog‘i nomidan Vatan haqida 4-5 gapdan iborat kichik matn tuzing.
5. **“Men Vatanim bilan faxrlanaman”** - O‘zbekiston bilan faxrlanishingizga sabab bo‘ladigan 3-5 ta jihatni yozing yoki rasmlarda aks ettiring.
6. **“Yosh fuqaroning burchi”** - Vatani sevuvchi va davlat ramzlarini hurmat qiluvchi bolaning kundalik qilishi mumkin bo‘lgan yaxshi ishlarini aniqlang va “Yaxshi fuqaro qoidalari”ni yarating.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Davlat ramzlaridagi rang, belgi va timsollarning mazmunini tushunadi, ularning Vatan hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritadi va o‘z munosabatini bildiradi.
- Bayroq, gerb va madhiyaga bag‘ishlangan rasm, kollaj, kompozitsiya, hikoya va shiorlar yaratadi; Vatan va uning kelajagi haqidagi tasavvurlarini ijodiy ifodalaydi.
- Davlat ramzlari, mustaqillik, tinchlik va Vatan haqidagi fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda tushunarli bayon qiladi, savollarga javob beradi va boshqalarning fikrini tinglaydi.
- Davlat ramzlariga bag‘ishlangan plakat, kollaj va ijodiy loyihalarni juftlik yoki guruhda bajaradi, vazifalarni taqsimlaydi va umumiy qarorga keladi.
- Davlat ramzlariga hurmatsiz munosabat yoki ularni asrash bilan bog‘liq sodda hayotiy vaziyatlarni tahlil qilib, to‘g‘ri xatti-harakat variantlarini taklif qiladi.
- Davlat ramzlari haqida berilgan ma’lumotlardan asosiy fikrlarni ajratib oladi, ularni taqqoslaydi va ijodiy topshiriqlarni bajarishda foydalanadi.

4-mavzu. Bolalar huquqlari va maktab qoidalari (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Konstitutsiya - davlatimizning asosiy qonuni ekani, unda insonning huquq va erkinliklari kafolatlanishi haqida tushuncha berish. Konstitutsiya jamiyatda tinchlik, tartib, adolat va o‘zaro hurmatni ta’minlashdagi ahamiyatini anglatish. Bolalarning **ta’lim olish, dam olish, sog‘lom va xavfsiz muhitda yashash, o‘z fikrini bildirish** kabi huquqlari bilan tanishtirish. Huquq bilan birga burch va mas’uliyat mavjudligini, o‘z huquqidan foydalanishda boshqalarning huquqlarini ham hurmat qilish zarurligini tushuntirish. Maktab qoidalariga rioya qilish, darsga vaqtida kelish, ustoz va tengdoshlarni hurmat qilish, maktab jihozlarini asrash, tozalik va tartibni saqlash, boshqalarga xalaqit bermaslik kabi kundalik odatlarni shakllantirish. Nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, zarur hollarda kattalardan yordam so‘rash, gadjetlardan maqsadli, xavfsiz va me’yorida foydalanish qoidalarini o‘rgatish. Konstitutsiya kunning mazmuni va ahamiyatini anglatish orqali huquqiy madaniyat, adolat, mas’uliyat, o‘zaro hurmat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Agar men...”** - “Agar sinfdoshimning huquqi buzilsa, men nima qilaman?” mavzusida qisqa vaziyat tuzing va yechimini taklif qiling.
2. **“Adolatli qaror”** - ikki o‘quvchi o‘rtasidagi kelishmovchilikka oid vaziyatni tanlang va uni tinch yo‘l bilan hal qilish usulini ko‘rsating.
3. **“Mening xavfsiz maktabim”** - maktabda xavfsizlikni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan qoidalarini rasm, xarita yoki sxema orqali tasvirlang.
4. **“Huquqlarimni hurmat qilaman, boshqalarnikini ham”** - o‘z huquqingiz va tengdoshlaringiz huquqlarini hurmat qilishni aks ettiruvchi kichik sahna ko‘rinishi tayyorlang.
5. **“Gadgetdan oqilona foydalanaman”** - gadgetlardan xavfsiz va foydali foydalanishning 5 ta qoidasini ishlab chiqing.
6. **“Huquqlar shaharchasi”** - guruhda ishlang va bolalar huquqlari himoya qilinadigan ideal maktab yoki shaharcha maketini yarating.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Huquq va burchni farqlaydi, turli vaziyatlarni tahlil qiladi, adolatli va to‘g‘ri yechimni tanlaydi.
2. Huquqlar, maktab qoidalari, xavfsizlik va mas‘uliyatga oid yangi g‘oyalar, plakat, maket, sahna ko‘rinishi va ijodiy yechimlar yaratadi.
3. O‘z huquq va fikrlarini aniq ifodalaydi, boshqalarni tinglaydi, savol beradi va o‘z nuqtayi nazarini odob bilan himoya qiladi.
4. Guruhda ishlaydi, vazifalarni taqsimlaydi, umumiy qarorga keladi va jamoaviy natija uchun mas‘uliyatni his qiladi.
5. Nizoli va kundalik hayotiy vaziyatlarni aniqlaydi, muammoni tinch yo‘l bilan hal qilishning maqbul usullarini taklif qiladi.
6. Gadgetlardan maqsadli, xavfsiz va me‘yorida foydalanadi, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilishning oddiy qoidalariga amal qiladi.

5-mavzu. Vatan himoyachilari - mardlik va jasorat namunasi (3 soat)

Kelajak soati mazmuni. Vatan himoyachisi tushunchasi, uning yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini asrashdagi o‘rni haqida sodda tushuncha berish. 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni haqida ma‘lumot berish. Harbiy xizmatchilarning Vatan oldidagi xizmatlari, jasorati, intizomi va mas‘uliyati haqida hayotiy misollar orqali tushuncha hosil qilish. Vatan himoyachilariga hurmat va minnatdorlik bildirishni o‘rgatish. Mardlik, jasorat, intizom, do‘stlik, mehribonlik va yordamga tayyorlik kabi fazilatlarining kundalik hayotdagi ahamiyatini anglatish. Qiyin vaziyatlarda o‘zini boshqarish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va zarur hollarda kattalardan yordam so‘rash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Tinchlik va osoyishtalikni qadrlash, oila va

yaqinlariga g'amxo'rlik qilish, tabiat va atrof-muhitni asrash orqali Vatanga foyda keltirish mumkinligini tushuntirish. Vatanga muhabbatni yaxshi o'qish, bilim olish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, odobli bo'lish, mas'uliyatli vazifalarni bajarish va boshqalarga yordam berish kabi kundalik amallar orqali namoyon etishga yo'naltirish. O'quvchilarda Vatanga sadoqat, tinchlikni qadrlash, mardlik, jasorat, mas'uliyat, hamjihatlik va boshqalarga g'amxo'rlik kabi fazilatlarni shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Mardlik nima?”** - Mard va jasur insonning fazilatlarini aniqlang va ularni “Mardlik gulchambari”da ifodalang.
2. **“Vatan himoyachisiga maktub”** - Vatan himoyachisiga minnatdorlik bildiruvchi qisqa maktub yoki tabriknoma tayyorlang.
3. **“Jasoratli qaror”** - qiyin vaziyat tasvirlangan kichik hikoya tuzing va unda qahramon qanday to'g'ri qaror qabul qilganini ko'rsating.
4. **“Himoyachi qanday bo'ladi?”** - Vatan himoyachisiga xos fazilatlarni rasm, klaster yoki taqdimot orqali ifodalang.
5. **“Men volontyorman”** - boshqalarga yordam berish mumkin bo'lgan 3 ta hayotiy vaziyatni o'ylab toping va ulardagi to'g'ri harakatlarni ayting.
6. **“Mardlik va jasorat”** - tarix yoki hayotdan o'zingiz bilgan jasorat namunasini tanlang va uning qaysi fazilatlari sizga ibrat bo'lishini tushuntiring.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Jasorat va qo'rqmaslik tushunchalarini farqlaydi, turli vaziyatlarda xavfsiz va to'g'ri qarorlarni tanlaydi, o'z tanlovini izohlaydi.
- Vatan, tinchlik, mardlik va jasorat mavzularida hikoya, rasm, kollaj, plakat va ijodiy g'oyalar yaratadi.
- O'z fikri, his-tuyg'usi va munosabatini og'zaki hamda yozma shaklda ifodalaydi, boshqalarni tinglaydi va fikr almashadi.
- Guruh va juftliklarda topshiriqlarni bajaradi, o'zaro yordam ko'rsatadi, umumiy maqsadga erishish uchun mas'uliyatni bo'lishadi.
- Berilgan hayotiy vaziyatlarda muammoni aniqlaydi, xavfsizlikni hisobga olgan holda maqbul yechim va harakat yo'lini taklif qiladi.
- Qiyin vaziyatlarda o'zini tutish, hissiyotlarini boshqarish, intizomga rioya qilish va vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishga intiladi.

6-mavzu. Ajdodlarga munosib avlod bo'laylik! (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Ajdodlarimiz xalqimizning tarixiy va ma'naviy boyligini yaratgan, ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyat rivojiga hissa qo'shgan buyuk insonlar ekanligi haqida tushuncha berish. Alisher Navoiy va Zahiriddin

Muhammad Boburning hayoti va ijodi bilan yoshga mos, qiziqarli misollar orqali tanishtirish. Navoiyning ilm, kitob, ona tili va ezgulikka e'tibori, Boburning bilimga qiziqishi, jasorati, tabiat va she'riyatga mehrini ibrat sifatida ko'rsatish. Ajdodlarimizning ilmiy, adabiy va ma'naviy merosi bilan tanishish, ularning hayoti va faoliyatidan mehnatsevarlik, bilimga intilish, ijodkorlik, jasorat, vatanparvarlik va mehribonlik kabi fazilatlarni o'rganish. Ajdodlarga munosib avlod bo'lish yaxshi o'qish, kitob o'qish, ona tilini qadrlash, odobli va mehnatsevar bo'lish, o'z iste'dodini rivojlantirish hamda Vatanga foydali inson bo'lishga intilishdan boshlanishini anglatish. O'quvchilarda tarixiy xotira, milliy g'urur, ajdodlarga hurmat, ilm va kitobga muhabbat, ijodkorlik, vatanparvarlik va o'z kelajagiga mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Ajdodlarimizdan nimani o'rganamiz?"** - Alisher Navoiy yoki Zahiriddin Muhammad Boburdan o'rnak olish mumkin bo'lgan 3 ta fazilatni rasm yoki so'zlar orqali ifodalang.
2. **"Boburga savolim bor"** - Zahiriddin Muhammad Bobur bilan uchrashganingizda unga beradigan 3 ta savolni tuzing.
3. **"Navoiyga xat"** - Alisher Navoiy haqida bilganlaringiz asosida unga qisqa xat yozing. Xatda shoirning sizga yoqqan fazilati yoki ijodidan olgan taassurotingizni ifodalang.
4. **"Men ham kitobxon bo'laman"** - ajdodlarimizning ilmga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib, o'zingizning kitob o'qish rejangizni tuzing.
5. **"Ajdodlarimiz merosi"** - ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ilm, adabiyot, til, san'at yoki boshqa qadriyatlarni aks ettiruvchi kollaj tayyorlang.
6. **"Ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz"** - guruhda ishlang va Alisher Navoiy hamda Boburga bag'ishlangan plakat, sahna ko'rinishi yoki kichik taqdimot tayyorlang.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Ajdodlarimiz haqida o'rgangan ma'lumotlarini og'zaki va yozma bayon qiladi, savollar tuzadi, fikrini tushunarli ifodalaydi va boshqalarni tinglaydi.
- Guruhda ijodiy topshiriqlarni bajaradi, fikr almashadi, vazifalarni taqsimlaydi va umumiy natijaga erishadi.
- Ajdodlarimiz haqidagi ma'lumotlardan asosiy fikrlarni ajratib oladi, ularni tartiblaydi va ijodiy faoliyatida foydalanadi.
- Ajdodlarimiz hayotidagi voqealar asosida turli vaziyatlarni tushunadi, o'z fikrini bildiradi va maqbul yechimlarni taklif qiladi.

- Kitob o‘qish, yangi bilimlarni egallash, yangi so‘zlarni o‘rganish va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga intiladi.
- “Ajdodlarimga munosib avlod bo‘lish uchun men...” savoli asosida shaxsiy maqsad va foydali ishlarini belgilaydi.

7-mavzu. Milliyligim- faxrim, merosim- baxtim! (3 soat)

Kelajak soati mazmuni. Milliylik, milliy qadriyat, urf-odat va an‘analarni haqida sodda tushuncha berish. O‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g‘amxo‘rlik, mehr-oqibat va o‘zaro yordam kabi qadriyatlarini kundalik hayot bilan bog‘lash. Navro‘z -bahor, yangilanish, ezgulik, mehr-oqibat va do‘stlikni ifodalovchi qadimiy milliy bayram ekanini anglatish. Navro‘z bilan bog‘liq sumalak tayyorlash, hashar, keksalarni ziyorat qilish, yaxshi tilaklar bildirish kabi an‘analarni haqida ma‘lumot berish. Milliy kiyimlar, xalq o‘yinlari, kuy-qo‘shiqlar, milliy taomlar va hunarmandchilik orqali xalqimizning boy madaniy merosi bilan tanishtirish. Oilada saqlanib kelayotgan an‘analarni va bayram odatlarini o‘rganishga qiziqish uyg‘otish. Milliy merosni asrash va davom ettirish har bir avlodning vazifasi ekanini tushuntirish. O‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, milliy g‘urur, Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, hamjihatlik va merosga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Oilamizdagi Navro‘z”** - oilangizda Navro‘z qanday nishonlanishini o‘rganib, sinfdoshlaringizga hikoya qilib bering yoki rasmini chizing.
2. **“Navro‘z an‘analari”** - sumalak, hashar, keksalarni yo‘qlash, mehmondo‘stlik kabi an‘analardan birini tanlab, uning mazmunini rasm yoki kichik hikoya orqali ifodalang.
3. **“Milliy taomlarimiz”** - oilangizda tayyorlanadigan milliy taom haqida ma‘lumot to‘plang va uning nomi, tarkibi yoki tayyorlanish jarayonini rasmi tarzda ifodalang.
4. **“Navro‘z sayli”** - guruhda Navro‘z bayramidagi sayilni sahna ko‘rinishi, maket yoki kollaj shaklida namoyish eting.
5. **“Merosni asraymiz”** - milliy merosni asrash uchun nimalarni qilish mumkinligini aniqlang va “Merosimizni asrashning 5 qoidasi”ni yarating.
6. **“Mening milliy merosim”** - oilangizda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan biror urf-odat, hunar, buyum yoki an‘ana haqida hikoya tayyorlang.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni farqlaydi, ularning mazmuni va ahamiyati haqida fikr yuritadi, foydali an'analarni davom ettirish yo'llarini aniqlaydi.
2. Navro'z, milliy kiyimlar, taomlar va qadriyatlar asosida rasm, kollaj, tabriknoma, hikoya va ijodiy kompozitsiyalar yaratadi.
3. Oilasidagi Navro'z an'analari va milliy qadriyatlar haqida ma'lumot to'playdi, uni sinfdoshlariga ravon va tushunarli tarzda yetkazadi, savol beradi va fikr almashadi.
4. Guruhda Navro'z sayli, kollaj, maket va sahna ko'rinishlarini tayyorlashda vazifalarni taqsimlaydi, birgalikda qaror qabul qiladi va umumiy natijaga erishadi.
5. Oila a'zolari, kitoblar va boshqa manbalardan milliy urf-odatlar haqida ma'lumot izlaydi, muhim ma'lumotlarni tanlaydi va ijodiy ishida foydalanadi.
6. Milliy meros va an'analarni asrash bilan bog'liq sodda vaziyatlarni tahlil qiladi, ularni saqlash va davom ettirish bo'yicha amaliy takliflar beradi.

8-mavzu. Buyuk bobolarimiz - dunyoga tanilgan ajdodlarimiz! (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Amir Temur - tariximizda muhim o'rin tutgan buyuk ajdodimiz ekanligi haqida sodda va qiziqarli ma'lumot berish. Uning yurtga muhabbati, jasorati, qat'iyati, tartib-intizomi va maqsad sari intilishidan ibrat olish. "Kuch - adolatda" g'oyasi mazmunini hayotiy misollar orqali tushuntirish, adolatli bo'lish, boshqalarga hurmat va halol munosabatda bo'lishning ahamiyatini anglatish. Amir Temur davrida Samarqand va boshqa shaharlarda bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgani, go'zal binolar, bog'lar va obod maskanlar yaratilgani haqida tushuncha berish. Ajdodlarimiz davrida hunarmandchilik, me'morchilik, ilm-fan va madaniyat rivojiga e'tibor qaratilganini sodda misollar orqali ko'rsatish. Tarixiy obidalarni asrash va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish. Amir Temur va boshqa buyuk ajdodlarimizning jasorat, adolat, mehnatsevarlik, intizom, bunyodkorlik va Vatanga sadoqat kabi fazilatlaridan o'rnak olishga yo'naltirish. O'quvchilarda tarixga qiziqish, milliy g'urur, Vatanga muhabbat, adolatparvarlik, mas'uliyat va bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **"Kuch - adolatda"** - ushbu iboraning mazmunini hayotiy misol, rasm yoki kichik hikoya orqali tushuntiring.
2. **"Adolatli qaror"** - ikki bola o'rtasidagi kelishmovchilikka oid vaziyat tuzing va adolatli yechim taklif qiling.
3. **"Men ham bunyodkor bo'laman"** - maktab, mahalla yoki Vatanimiz uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan 3 ta bunyodkorlik g'oyasini taklif qiling.

4. **“Tarixiy obidalarimiz”** - tarixiy shaharlardagi mashhur obidalardan birini tanlang, uning rasmini chizing va o‘zingiz bilgan ma’lumotlarni aytib bering.
5. **“Amir Temur davriga sayohat”** - o‘zingizni o‘sha davrga tushib qolgandek tasavvur qilib, kichik hikoya yozing yoki sahna ko‘rinishi tayyorlang.
6. **“Buyuk bobomiz merosi”** - Amir Temur nomi bilan bog‘liq tarixiy joylar, obidalar yoki meros haqida kichik kollaj, plakat yoki taqdimot tayyorlang.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Amir Temurning faoliyati va fazilatlarini o‘rganadi, adolatli va nohaq xatti-harakatlarni farqlaydi, berilgan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror haqida fikr yuritadi.
- Tarixiy voqealar asosida hikoya, rasm, maket, kollaj, sahna ko‘rinishi va ijodiy g‘oyalar yaratadi.
- Tarixiy ma’lumotlarni o‘z so‘zlari bilan bayon qiladi, savollar tuzadi, o‘z fikrini asoslaydi va boshqalarning fikrini tinglaydi.
- Guruh va juftliklarda tarixiy obida maketi, plakat, kollaj va sahna ko‘rinishlarini tayyorlaydi, vazifalarni taqsimlaydi va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qiladi.
- Adolat, tartib va o‘zaro munosabatlarga oid hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi, muammoni tinch va adolatli hal etish yo‘llarini taklif qiladi.
- Amir Temur, Samarqand va tarixiy obidalar haqidagi ma’lumotlarni o‘rganadi, asosiy fikrlarni ajratadi va ularni ijodiy topshiriqlarda qo‘llaydi.

9-mavzu. Xotira - mangu, qadr – muqaddas! (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Xotira va qadrlash tushunchalarining mazmunini sodda hayotiy misollar orqali tushuntirish. “9-May - Xotira va qadrlash kuni” ning mazmun-mohiyati, uning tinchlik va inson qadrini ulug‘lashdagi ahamiyati haqida ma’lumot berish. Yurtimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligi uchun xizmat qilgan insonlarni yod etish, ularning jasorati va mehnatini qadrlash. Keksalar, faxriylar, ota-ona, buvi-buva va ustozlarga hurmat, e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishning ahamiyatini anglatish. Tinchlikning inson hayotidagi qadrini tushuntirish, osoyishta hayotni asrash va uning imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo‘naltirish. Yaqin insonlardan ularning bolaligi, oilasi yoki hayotidagi muhim voqealar haqida xotiralarini tinglash, suhbat davomida savollar berish va eshitganlarini boshqalarga hurmat bilan yetkazish. Kattalarga yordam berish, holidan xabar olish, minnatdorlik bildirish, yaxshi so‘z va ezgu amallar orqali inson qadrini ulug‘lash kabi fazilatlarni rivojlantirish. O‘quvchilarda xotira, hurmat, mehr-oqibat, minnatdorlik, tinchlikni qadrlash, inson qadrini bilish va avlodlar o‘rtasidagi mehr-oqibat tuyg‘ularini shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Buvim va buvamning xotiralari”** - keksa oila a’zolaringiz bilan suhbatlashing, ularning bolaligi yoki hayotidagi qiziqarli xotirani sinfdoshlaringizga hikoya qilib bering.
2. **“Rahmat, aziz inson!”** - ota-ona, buvi-buva, ustoz yoki faxriy insonga minnatdorlik maktubi yoki tabriknoma tayyorlang.
3. **“Keksalarga e’tibor”** - keksa insonlarga yordam berish mumkin bo’lgan 5 ta yaxshi ishni aniqlang va “Mehrli qo’llar” plakatini yarating.
4. **“Bir yaxshilik haqida”** - keksaga yordam berish yoki yaqin insonni xursand qilishga qaratilgan bitta ezgu ishni rejalashtiring va uning natijasini sinfda hikoya qiling.
5. **“Agar xotiralar gapira olsa...”** - o’tmishdagi bir yaxshi voqea nomidan 5-6 gaplik ijodiy hikoya tuzing.
6. **“Tinchlik posbonlari”** - tinchlikni asrashga hissa qo’shayotgan insonlar haqida rasm, sahna ko’rinishi yoki kichik taqdimot tayyorlang.

O’quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Xotira, qadrlash va tinchlik tushunchalarini farqlaydi, hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi va ularga o’z munosabatini bildiradi.
- Xotira, tinchlik, minnatdorlik va mehr-oqibat mavzularida hikoya, rasm, kollaj, she’r, tabrik va ijodiy kompozitsiyalar yaratadi.
- Keksa oila a’zolari bilan suhbatlashadi, savollar beradi, tinglagan xotiralarini tushunarli tarzda bayon qiladi va o’z fikrini ifodalaydi.
- Juftlik va guruhlarda ijodiy topshiriqlarni bajaradi, fikr almashadi, bir-birini tinglaydi va umumiy natijaga erishadi.
- Oila a’zolari va boshqa manbalardan xotira va tarixga oid ma’lumotlarni to’playdi, muhim jihatlarini ajratadi va tartiblaydi.
- Turli hayotiy vaziyatlarda keksalarga yordam berish, nizolarni tinch yo’l bilan hal qilish va boshqalarga ko’maklashishning maqbul usullarini taklif qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. - Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 7-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori. 2019-yil 31-dekabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 34-son qarori. 2026-yil 28-yanvar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari. – Toshkent.
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Kelajak soati” mashg‘ulotlarini o‘tkazish konsepsiyasi. – Toshkent, 2026.

II. Ilmiy va metodik adabiyotlar

10. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
11. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. - Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”.
12. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. - Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”.
13. Amir Temur. “Temur tuzuklari”. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.
14. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. “Pedagogika”. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2011.
15. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. - Toshkent: “Iste’dod”, 2008

16. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. "Pedagogika". - Toshkent: O'qituvchi, 2008.
17. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: "Fan", 2006.
18. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". - Toshkent: "Sharq", 2002.

III. Xorijiy adabiyotlar

19. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. - Nyu-York: BMT, 1989.
20. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. - New York: United Nations, 2015.
21. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. - Paris: UNESCO, 2015.
22. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. - Paris: UNESCO, 2016.
23. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. - Paris: UNESCO, 2021.
24. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education. - Paris: UNESCO, 2023.
25. UNICEF. Convention on the Rights of the Child: Child-Friendly Version. - New York: UNICEF.
26. OECD. The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. - Paris: OECD, 2019.
27. Bloom B.S. (ed.). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. - New York: David McKay, 1956.
28. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

IV. Elektron ta'lim resurslar

29. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti. – <https://gov.uz/oz/uzedu>
30. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. – <https://gov.uz>
31. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (LexUZ). – <https://lex.uz>
32. O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. – <https://my.gov.uz>
33. Ziyonet ta'lim portali. – <https://www.ziyonet.uz>

34. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining elektron kutubxonasi. – <https://e-base.natlib.uz>